



**MA'NAVIYATLI VA SALOHİYATLI YOSHLAR YANGI
O'ZBEKISTONDA FAROVON XAYOT POYDEVORI**

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich

Qo'qon davlat universiteti

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Telefon nomeri: +99894 499-04-17

E-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com

[UO'K101.1:316.323\(575:1\) O'MKutubxona](#)

<https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476>

[Farg'ona, O'zbekiston](#)

Annotatsiya

Maqolada ma'naviyatli va salohiyatli yoshlarni tarbiyalashning ahamiyati, zolzarbligi va yangi O'zbekistonda bu masalaning zaruriyati taxliliy asosda yoritib, bu muammoni xorij tajribasidan foydalangan xolda samarali xal etish masalasi ochib berilgan. shuningdek, ijtimoiy-falsafiy jixatdan muammoga atroflicha yondashilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, salohiyat, farovonlik, ijtimoiy farovonlik, milliy tiklanish.

Har qanday jamiyatning ertasi – bu yosh avlod. Ular tom ma'noda, eng katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi. Zero, ma'naviyatli va salohiyatli



yoshlar yangi O'zbekiston yoshlari — kelajagimiz, istiqbolimiz va farovon xayotimizning poydevoridir.

Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma'no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o'quv binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan bog'liq. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida takidlaganidek “Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag'allikdan xoli” hududga aylandi. Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim tizimini joriy etdik. Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi”¹.

Yurtimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasi esa butun mamlakatimiz aholisi, umuman, barcha-barchamizning umumiy maqsad va manfaatlarimizni ifodalaydigan umumxalq harakatidir. Binobanir, yangi O'zbekistonning milliy g'oyasi insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik g'oyasi sifatida milliy davlatchiligimizning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini yaratishda bunyodkor manba bo'lib xizmat qiladi. Nega desangiz, joylarda aholi bilan uchrashuvlarimiz davomida aksariyat maktablarning binolari o'tgan asrning o'rtalarida qurilgani, o'quv-partalari eski, sinfxonalar yetishmasligiga ko'p bor guvoh bo'lganmiz. Demak, mamlakatni qudratli qiladigan kuch ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekan, bilim va

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.



ma'naviyat maskani bo'lgan maktablar sharoitini yaxshilash kechiktirib bo'lmaz vazifa hisoblanadi. Shuningdek, 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"², deb e'lon qilishi mahallalardagi o'sib-ulg'ayayotgan yosh avlodni ma'naviyatli va salohiyatli qilib tarbiyalanishiga e'tiborning bir namunasi. Bu esa Yangi O'zbekiston jamiyatining farovonligini taminlashda muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda Britaniyaning Legatum instituti tomonidan har yili e'lon qilinadigan, dunyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy muhiti, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, shaxsiy erkinlik va boshqaruv samaradorligi kabi 12 ta asosiy yo'nalish bo'yicha rivojlanish darajasini o'lchaydigan kompleks ko'rsatkichlari bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan eng yangi Legatum farovonlik indeksi (Legatum Prosperity Index) ma'lumotlari hali rasman to'liq e'lon qilinmagan bo'lsa-da, so'nggi tendensiyalarga ko'ra, O'zbekiston ijtimoiy kapital va sog'liqni saqlash sohalaridagi yutuqlari bilan reytingda yuqorilab borayotgan davlatlar qatorida qayd etilmoqda³. bu albatta ma'naviyatli va salohiyatli yoshlarning yangi O'zbekistonda farovon jamiyat sari ildam qadam bilan borayotganligining isbotidir.

Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish davrida yoshlar jamiyatning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Har bir davlatning ertangi kuni, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqi bevosita salohiyatli va ma'naviyatli yoshlar bilan bog'liq. Shu bois yoshlarda nafaqat bilim va kasbiy ko'nikmalarni, balki yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Salohiyatli yoshlar deganda, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va innovatsion g'oyalarni ilgari sura oladigan avlod tushuniladi. Bunday yoshlar fan, texnologiya, ta'lim, madaniyat va

² Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.

³ <https://uzreport.news/analytics/o-zbekiston-farovonlik-boyicha-mamlakatlar-reytingida>



boshqa sohalarda yangilik yaratishga intiladi. Ular o'z ustida tinimsiz ishlaydi, vaqtni qadrlaydi va maqsad sari qat'iyat bilan harakat qiladi. Salohiyat — bu faqat bilim emas, balki uni amalda qo'llay olish, muammolarga yechim topish va jamiyat manfaatiga xizmat qila olish qobiliyatidir.

Ma'naviyatli yoshlar esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, vatanparvar, halol, adolatparvar va mas'uliyatli shaxslardir. Yuksak ma'naviyat insonni turli yot g'oyalardan asraydi, uni jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi. Ma'naviyatli yoshlar ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom, do'stga sadoqat kabi fazilatlarni hayot mezoniga aylantiradi. Aynan mana shu fazilatlar salohiyat bilan uyg'unlashganda barkamol shaxs shakllanadi.

Salohiyat va ma'naviyat bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Agar bilim ma'naviyat bilan uyg'un bo'lmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarni har tomonlama yetuk etib voyaga yetkazish muhimdir. Oila, maktab, oliy ta'lim muassasalari va jamoatchilik bu borada bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozim.

Bugungi kunda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar — sifatli ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, sport va madaniyat maskanlari — ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish yoshlarning o'ziga ham bog'liq. Har bir yosh o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishni hayotiy vazifa deb bilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, salohiyatli va ma'naviyatli yoshlar — bu nafaqat bugunning, balki kelajakning ham ishonchli tayanchidir. Ularni tarbiyalash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish har bir jamiyat a'zosining muhim



burchidir. Zero, yuksak salohiyat va mustahkam ma'naviyatga ega avlod bor ekan, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yhati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. <https://uzreport.news/analytics/o-zbekiston-farovonlik-boyicha-mamlakatlar-reytingida>
- 3.